

BOSHLANG'ICH TA'LIM DARSLARIDA INNOVATSION TA'LIM TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISHNING AFZALLIKLARI

Nilufar Sabirova

YEOJU technical institute

“Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi” 4-bosqich talabasi.

Rustamova Manzura Mirkamolova

Ilmiy rahbar

Annotasiya

Ushbu maqolada boshlang'ich ta'lim jarayonida innovatsion ta'lim texnologiyalarini afzalliklari va uni yana qanday maqsadlarda qo'llash va hozirgi kunda qanday texnologiyalarda foydalanilmoqda shu haqida fikr mulohazalar yuritilgan.

Kalit so'zlar: Innovatsiya, integratsiya, ta'lim texnologiyalari, V.I.Zagvyanskiy, texnologiya, Shavkat Mirziyoyev, interfaol metodlar, metod, kreativlik.

Bilamizki bugungi XXI asr texnologiyalar asri desak hech ham mubolag'a bo'lmaydi. Chunki butun dunyo bo'ylab har jabhada texnologiyalar yaratilmoqda va uni har bir sohada qo'llab juda kata yutuqlarga erishilmoqda. Ularni nafaqat texnika yoki ishlab chiqarish turli korxonalar balki ta'lim –tarbiya jarayonlarida ham juda keng ravishda foydalanilmoqda. Ular yordamida nafaqat talabalarga bilimni oson yetkazish mumkin, balki yosh o'sib kelayotgan navqiron o'quvchilarga ham bilim berish jarayonida qo'llashmoqda bu esa bilimni oson va qiyinchiliksiz egallab bir nechta maqsadlarga yetish imkoniyatini bizga yaratib beradi.

Innovatsiya- [ing – innovatsionas –kiritilgan yangilik, ixtiro] 1. Texnika va texnologiya avlodlarini almashtirishni ta'minlash uchun iqtisodiyotga sarflangan mablag'lar. 2. ilmiy-texnika yutuqlari va ilg'or tajribalarga asoslangan texnika, texnologiya , boshqarish va mehnatni tashkil etish kabi sohalaridagi yangiliklar shuningdek ularning turli sohalar va faoliyat doiralarida qo'llashnishi.[1]

Innovatsiyalarni ta'lim jarayonlarida qo'llash juda kata imkoniyatlarni bizga ochib beradi. Biz innovatsiyalarni ta'lim tarbiya jarayonida qo'llash orqali o'quvchilarga nazariy bilimlarni berish bilan bir qatorda ularga amaliy qo'llab ko'rish imkoniyatini yaratib beramiz ular nafaqat ularni o'rganadi balki o'zlari ham o'rgangan narsalari orqali biror bir yangilik kiritishni o'rganib o'zlari biz o'rgatgan narsalarga qo'shimcha tarzda kiritib olishni o'rganadilar. Davlatimiz tomonidan ham bugungi kunda juda kata o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'quvchilarga maktab ta'limida turli xil innovatsiyalardan foydalangan holda yangilik kiritib turli interfaol metodlar, pedagogic texnologiyalar, didaktik o'yinlar orqali o'quvchilarga darsni kreativ tarzda o'tishni va shu vositalar orqali o'quvchilarga mavzularni oson yetkazib berish uchun juda kata imkoniyatlar yaratib berilmoqda. Kuni kecha

Prezidentimiz maktab ta'limidagi islohotlarning borishini muhokama qildilar. 25-may kuni o'tkazilgan ushbu yig'ilishda, yaqinda rahbarlarning 11-maydagi farmoni bilan 2022-2026-yillarda xalq ta'limini rivojlantirish bo'yicha milliy dastur tasdiqlandi. Unda ilg'or xorijiy tajriba asosida ta'lim sifatini oshirish, o'qituvchilik kasbining nufuzini yuksaltirish, inklyuziv ta'limni rivojlantirish, o'quvchilarni kasbga yo'naltirish kabi dolzarb mavzular muhokamasi bo'lib o'tdi.

Prezidentimiz "Ma'naviyat maktabdan boshlanadi. Maktablarda ta'lim sifatiga qanday e'tibor bersak, ma'naviyatga ham shunday e'tibor berishimiz kerak.-dedi Shavkat Mirziyoyev [2]

Yuqoridagi o'zgarishlardan ko'rinib turibdiki Prezidentimiz ham aynan o'zgarish va e'tiborni birinchi navbatda yosh o'quvchilar ta'limidan boshlash lozimligini ta'kidlab maktablarda turli o'zgarish va innovatsiyalarni aynan o'sha yerdan qo'llashni ta'kidlab o'tmoqdalar chunki yosh va navqiron o'quvchilarga yoshlikdan yangilik kiritish va ijodkorlik kabi tushunchalarni singdirib dars jarayonlarida qo'llasak ularga namuna va o'rnak bo'lgan holda ular shu vositalarni kelajakda qo'llashni bizdan o'rganishadi .Zero "O'rtacha o'qituvchi hikoya qiladi.Yaxshi o'qituvchi tushuntiradi .A'lo darajadagi o'qituvchi ilhom beradi".(3)

Darslarda axborot texnologiyalarining ishlatilishi , innovatsion g'oyalardan va yangi pedagogik texnologiyalardan o'z o'rnida foydalanish bizga juda keng imkoniyatlarni ochib beradi ; o'quvchilarning o'qishga bo'lgan motivatsiyasini , ularning qiziquvchanligini , mustaqil ishlash samaradorligi va shular orqali ularning qaysi kasbga bo'lgan qiziqishlarini yuzaga chiqarib , samaradorligini bizga oshirib beradi.Bulardan qay darajada samarali foydalana olish esa o'qituvchidan yuksak mahoray va bilimni talab qiladi.

V.I.Zagvyaniskiy yangi tushunchasiga ta'rif berib, pedagogikadagi yangi bu faqatgina g'oya emas balki hali foydalanilmagan yondashuvlar, metodlar, texnologiyalardir , lekin bu pedagogik jarayoning unsurlari majmuan yoki alohida olingan unsurlari bo'lib ,o'zgarib turuvchi sharoitda va vaziyatda ta'lim va tarbiya vazifalarini samarali hal etishning ilg'or boshlanmalarini o'zida aks ettiradi deb ta'riflangan.(4)

Pedagogik innovatsiyalarini ta'lim jarayonida qo'llash deganda faqat texnologiya orqali dars o'tish yoki faqat shu orqali mavzuni o'quvchilarga yetkazib berishni tushunish emas balki , o'qituvchi o'zi darslik orqali ham innovatsiya qilish mumkun :

Misol uchun :

4-sinf texnologiya darsligidagi berilgan "Yuruvchi robot yasash" mavzusini integratsiya qilib o'quvchilarga bitta mavzu orqali bir nechta fan yuzasidan ularning bilimlarini mustahkamlab ketishimiz mumkun

Mavzu robototexnikaga to'g'ri kelganligi uchun o'quvchilar bilan ushbu mavzu haqida suhbat o'tkazib , hozirgi kunda yaratilayotgan robotlar, yoki yangi texnologiyalarni ularga ko'rsatib ularga yangi informatsiyalar berishimiz mumkun .Yoki robotni ular bilan yasash jarayonida esa o'lchash , kesish , qirqish va yasash jarayonlarida ushbu jarayon qaysi fanga to'g'ri kelayotganini so'rab ularga shu jarayoni matematika bilan bog'lash mumkunligini eslatib

ketamiz .Yasash ishining ijodiy jarayonida uni bezatisj va rang tanlash jarayonida tasviriy san'atni bog'lab keta olamiz .Yuruvchi robot bo'lganligi uchun qo'g'irchoq teatri , robotlar haqidagi multfilimlar haqida suhbat o'tkazib yana boshqa harakatlanuvchi o'yinchoqlar yasab teatr tashkil qilgan holda amaliy dars o'tkazib o'quvchilarni san'atga bo'lgan qiziqishlarini gam yuzaga chiqara olamiz .Ish jarayonida ishni to'g'ri tashkil etish, gigiena va havfsizlik qoidalari kabi jarayonlarda esa Tarbiya faniga bog'lab o'tamiz . Keyinchalik ushbu mavzu yakunida robot va yangi texnologiyalarning inson hayotida tutgan o'rni va uning ahamiyati ,ulardan biz qay darajada hayotimizda yetarli darajada foydalanishimiz yoki uning yutuq va kamchiliklarini ko'rsatib hamma jarayonlarda ham robot va texnologiyalar inson qila oladigan jamiyki narsalarni , insondek qila olmasligi balki robot va texnologiyalarni o'z vazifasi, insoning ham o'z burch va majburiyatlari boshqa ekanligini tushuntirib shu jarayonda ularga uqtirib ketishimiz ham mumkun. Zero , har bir narsa o'z ustasi tomonidan bajarilsagina mukammal san'at asari bo'la oladi.

Bugungi kunda ta'lim - tarbiya jarayonida metodlardan , axborot texnologiyalaridan o'quv jarayonida qo'llash kundan kunga oshib bormoqda, bunga asosiy sabab o'quvchilarning egallayotgan bilimlarini o'zlari qidirib topish, mustaqil o'rganish va fikrlash tahlil qilish, hatto yakuniy xulosalarni ham o'zlari keltirib chiqarishga ham o'rgatadi.Ayni damda ta'lim jarayonida "Aqliy hujum " , "Fikrlar hujumi " , "Tarmoqlar metodi " ,"Sinkveyn " ,"BBB" ,"Beshinchisi ortiqcha " , "6x6x6", "Bahs-munozara" ,"Rolli o'yin" , "FSMU","Kichik guruhlarda ishlash " , "Yumaloqlangan qor " , "Zigzag" , "Oxirgi so'zni men aytay " kabi zamonaviy texnologiyalardan keng tarzda darslarda qo'llanilmoqda .(5)

Darsda o'yin -topshiriqlarni takrorlash yoki mustahkamlash darslarida foydalanilsa ijobiy natijalar beradi Va ko'zlangan maqsadlarga yetishimizda juda katta imkoniyatlar beradi.Xulosa qilib aytadigan bo'lsak bugungi rivojlanish asrida ilg'or pedagogik va yangi axborotlar texnologiyalaridan o'quv jarayonida foydalanishni talab etmoqda .Bu orqali o'quvchilar zamonaviy texnologiyalar orqali yuksak bilimlarni egallab , oson tarzda bilimlarni o'zlashtiradilar zamon bilan hamnafas tazda bilim oladilar va o'z kelajaklari uchun qiziqishlarini aniqlab , shu orqali mukammal bir kasb egasi bo'lib vatanimiz kelajagiga munosib bir kadrlar bo'lib yetishadilar bu yo'lida esa texnologiyalardan o'z o'rnida va meyorida , to'g'ri tanlash orqali foydalanish biz pedagoglarning yuksak vazifamiz hisoblanadi.

"Prezidentimiz takidlaganlaridek har bir inson, har kuni qiladigan ishini xuddi birinchi marta qilayotgandek qilishi kerak.Shundagina ishda rivojlanish bo'ladi "(6)deb aytgan fikrlarga tayangan holda har bir narsadan unumli foydalanish orqali yuksak maqsadlarga yetamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.<https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Innovatsiya>

2.<https://uzreport.news/politics/prezident> -maktab-ta-limidagi-islohotlarning -borishini -muhokama-qildi

[https: econferencezone.org](https://econferencezone.org)

3.<https://m.kun.uz/uz/news/2018/09/14/buuk-kisilarning-aksi-ukituci-bulisga-erdam-beradigan-dono-suzlari>

4.<https://ipb.uz/post/luighg-hfgncghc>

5.[https://kun.yz/uz/news/2019/11/27/boshlang'ich - sinfda - oqitishning - zamonaviy - texnologiyalardan -foydalanish-usullari](https://kun.yz/uz/news/2019/11/27/boshlang'ich-sinfda-oqitishning-zamonaviy-texnologiyalardan-foydalanish-usullari)

6.<https://hikmatlar.uz/author/468?page=1>